

BOLALIKTEPA DEVORIY SURATLARIDAGI SIRLI TARIX**Mustafaqulova Dilfuza ¹**¹ *Termiz arxeologiya muzeyi qayta ta'mirlovchi rassom***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:07.04.2025**Revised: 08.04.2025**Accepted:09.04.2025***KALIT SO'ZLAR:***Markaziy Osiyo,
Angor, Bolaliktepa,
Yumaloqtepa, Zartepa,
devoriy surat.*

Ushbu maqolada Bolaliktepa devoriy suratlarining topilishi va unda aks etgan ijtimoiy-madaniy muhit, turmush-tarzi boy madaniyati haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek, mazkur devoriy suratlarining yirik muzeylarda namoyishi haqida kengroq ma'lumot beriladi.

KIRISH. Bolaliktepa — termizshohlar qal'a qasri harobasi (V-VI-asrlar). Termiz shahridan 30 km shimolda. Katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lgani uchun shunday atalgan. Bolaliktepani san'atshunosarxeolog L. I. Albaum o'rgangan (1953— 55). Qal'aqasr to'rtburchak shakldagi paxsa poydevor (30×30×6 m) ustiga xom g'isht (50×30×10 sm) dan qurilgan bo'lib, 16 xonadan iborat (ulardan 11 tasi 5-asrda, 5 tasi 6-asrda bunyod etilgan). Tashqariga qaragan xonalarning devorlari nishon tuynukli. Eng katta xona o'rtasiga xom g'ishtdan davra tarhli otashkada (diametri 1,2 m, bal. 60 sm) ishlangan. Undagi kul qoldiqlari ichidan kuygan bug'doy doni va o'rik danaklari topilgan. Xonalardan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari, naqshinkor chilim, taqinchoqlar qadalgan ipak kiyimlar parchasi, chordana qurib bola emizayotgan ayol tasviri tushirilgan shisha turunj (medalon), yog'och qoshiq va boshqa topilgan. Xonalardan birida devorlarida to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar topilgan[1]. Angor vohasida V-VII asrlarda ravnaq topgan mahobatli san'at turlaridan yana bir devoriy rang-tasvir hisoblanadi. Bolaliktepa devoriy suratlari nafaqat vatanimiz, balki butun bir Markaziy Osiyoning bu

turdagi eng noyob rang-tasvir namunalaridan biri hisoblanadi. Bolaliktepa ko'shki ko'shki markaziy qismidagi tomonlari 4.85x4.85 m bo'lgan xonani rang-barang devoriy suratlar bezab turgan. Devoriy suratlarda shaxslar aksariyat juft holda, ehtimolki rafiqalari bilan tasvirlangan bo'lib, barcha ko'rinishda ayollar erkaklarning chap tarafidan o'rin olgan.



1-rasm. Bolaliktepa. Devoriy surat.

Sahnadagi bu yo'nalish ikki marotaba o'zgargan. Xususan, xonaning janubiy devoridagi lavhada ikki erkak orasida ayol va undan so'ng g'arbiy devordagi lavhada yonma-yon ikki ayol va ikki erkak tasvirlangan. Bazm ishtiroklarining barchasi qimmatbaho ipak matodan tikilgan kiyimda tasvirlangan. Erkak ko'ylaklari ustidan o'ng yoqqasi uchburchak shaklida tikilgan chakmon kiyib olganlar va ular belbog'iga sopli xanjar hamda hamyon taqilgan. Ayollar yoqqasi aylanma bichimdagi ko'ylakda, uning ustida tirsaklari barobari lenta osilgan o'ng yoqqasi erkaklar chakmoni kabi uchburchak shaklida tikilgan yoping'ich (halat)da tasvirlangan. Sahnaning asosiy qismida bevosita zodagonlar toifasiga mansub shaxslar tasvirlanganligini ularning oltindan yasalgan turli shakldagi taqinchoqlari orqali ham kuzatish mumkin. Bir lavhada ayol va erkaklar uch barmog'ida ichimlik solingan oltin qadahni o'ta mohirlik bilan tutib turgan bo'lsalar, yana bir lavhada erkaklar chap qo'llarida qadah bilan birgalikda o'ng qo'llarida shirinlik solingan idishni (ba'zilar bu shaklni oynaga qiyoslaganlar) ushlab olganlar.



2-rasm. Svam 3173. Bolaliktepa. Devoriy surat.

Bazm ishtirokchilaridan orqada aynan ular kabi kiyingan, qo'llarida yelpig'ich ko'tarib olgan kanizaklar, xonaning shimoli-g'arbiy burchagida besh nafar xonanda va sozandalar tasvirlangan. Bolaliktepa devoriy suratlari. O'zining hayotiyli bilan ajralib turadi. Barcha shakllar tasviri, ularning yuz-tuzilishlari yuz-tuzilishlari $\frac{3}{4}$ ko'rinishda ifodalangan bo'lib, har biri o'ziga xos. Bolaliktepa san'at namunasiga turli ko'rinishlilik va ko'p qirralilik xos, tasvirning eng yirigi, ya'ni old ko'rinishi aslzodalar suratlari hisoblanadi. Vohada bu davrda yog'och o'ymakorligi ham taraqqiy topgan. Angor markazidan bir necha chaqirim sharqda joylashgan Yumaloqtepa ham Bolaliktepa singari katta yer egasi (dehqon)ning ko'shki bo'lib xizmat qilgan[2].

Svam 3173. Devoriy surat. Bolaliktepa VI-VII asr. O'lchami: 70,5x88x05.

Mazkur devoriy surat bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyi 6-ko'rgazmalar zalida namoyish etib kelinmoqda. Ushbu topilma 2022-yil Luvrda va 2023-yilda Berlinda Jeyms Simon galereyasida ham namoyish etilgan.



Luvr muzeyi. Parij. Fransiya. 2022-yil 06-noyabrdan 2023-yil yanvar oyiga qadar "O'zbekiston vohalarining xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" ko'rgazmasi namoyish etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Bolaliktepa" O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Annaev T., Angor yodgorliklari tarixi. –T.: "Vorish-nashriyot", 2014.